

MA'NAVIYAT VA UNI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Karimova Saida

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15729526>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviyat tushunchasining mazmun-mohiyati, uning jamiyat hayotidagi o'rni hamda shaxs kamolotidagi ahamiyati tahlil etilgan. Ma'naviyatning shakllanishiga ijtimoiy muhit, oila, ta'lim-tarbiya, ommaviy axborot vositalari, urf-odat va an'analar, diniy va madaniy omillar qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy-nazariy asosda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy globallashuv sharoitida yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishda vujudga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi. Maqolada milliy qadriyatlar asosida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy muhit, oila, ta'lim, urf-odat, an'ana, ommaviy axborot vositalari, globallashuv, yoshlar, qadriyatlar, ruhiy kamolot.

Inson dunyoga kelibdiki, kamolot sari intiladi. Ham jismoniy ham ma'naviy kamolotga erishish uchun tinmay harakat qilish, intilish lozim. Aslida ma'naviy kamolot insonga suv va havodek zarur. Insonning ma'naviyati bir qator muhim vazifalarni bajaradi va hayotida katta ahamiyatga ega. Ma'naviyat insonning axloqiy qarashlarini belgilaydi. U yaxshilik va yomonlik, adolat va nohaqlik kabi tushunchalarni anglashda yordam beradi. Ma'naviyat orqali insonning ichki dunyosi yuksalib, ruhiy osoyishtalikka erishishi mumkin.

Ma'naviyat odamni hayotdan maqsad izlashga, shaxsning o'zini rivojlantirishiga, yangi bilimlar olishiga va o'zini takomillashtirib borishga undaydi. Ma'naviyat insonni boshqalarga yordam berishga, yaxshilik qilishga va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga undaydi. Ma'naviyat ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi. Odamlar o'rtasida ishonch, hamjihatlik va hamkorlikni ta'minlaydi.

Ma'naviyatni shakllantiradigan omillar ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi. Ular shaxsning ichki dunyosini, axloqiy qadriyatlarini va hayotga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Insonning ma'naviy yuksaklikka erishishiga undovchi, ma'naviy kamolotiga ta'sir etuvchi omillar juda ham ko'p. Bu haqida turli manbalarda turlicha qarashlar bor. Jumladan, birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarining 1-bob 2-fasli "Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar" deb nomlanib, unda shaxs ma'naviyatini shakllanishida ta'siri kuchli bo'lgan omillar tahlil etilgan. Asarda 8 ta asosiy mezon ko'rsatilgan. Bular:

- Avesto-ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal
- Xalq og'zaki ijodi-Alpomish(Vatanparvarlik)
- Navro'z-sahovatlilik
- Islom dini-halollik,yaxshilik, insonparvarlik,ezgulik
- Buyuk allomalarimiz hayoti va merosi
- Oila-tarbiya ibtidosi
- Maktab-ta'lim-tarbiya o'chog'i
- Mahalla-tarbiya tayanchi

Birinchi prezidentimiz bu mezonlarning har biriga to'htalib, izohlab o'tganlar.Biz ularning ayrim fikrlarini keltirib o'tmoqchimiz.

"Avesto"ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan

saboqlar borligini ko'rish mumkin. Ham shunday fikrlar, ya'ni, ezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq, nechog'liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e'tiborlidir¹. Ushbu fikrlar orqali birinchi prezidentimiz uch ming yillik tarixga ega Avesto kitobining insoniyatga berishi mumkin bo'lgan beqiyos sabog'ini, millatimiz ma'naviy kamolotidagi o'rnini, uning asosiy g'oyalarining hozirgi zamonda ham ahamiyatli ekanligini ta'kidlab o'tadilar.

... xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ham shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan ham chiqib, o'zligini doimo saqlaganel-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o'z ifodasini topgan.

Shu bois "Alpomish" dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozarlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi"². Xalq og'zaki ijodi inson kamolotiga bir qator jihatlari bilan ta'sir ko'rsatadi. Bu ijod shakllari, asosan, xalqning tarixiy tajribalari, an'analari va madaniyatini o'z ichiga oladi. Xalq og'zaki ijodi (xalq qo'shiqlari, ertaklar, afsonalar) avloddan-avlodga o'tib, xalqning madaniy merosini saqlaydi. Bu orqali insonlar o'z milliyligini angelaydi va madaniyatini hurmat qiladi. Og'zaki ijod asarlarida ko'plab axloqiy saboqlar mavjud. Ertaklar va afsonalar orqali insonlar yaxshilik, adolat, samimiyat kabi qadriyatlarni o'rganadilar. Xalq og'zaki ijodi inson kamolotiga katta ta'sir ko'rsatadi, chunki u madaniyatni saqlaydi, axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi va ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradi. Bu ijod shakli shaxsning ruhiy va emotsional rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi, shuningdek, tarixiy xotirani saqlab qolishga yordam beradi.

"Milliy ma'naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram-sharqona yangi yil bo'lmish Navro'z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi.

Barchamiz doimo orziqib kutadigan va ham xursandchilik, shodiyona bilan o'tkazadigan Navro'z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko'p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo'lib kelmoqda"³. Bu bayram birdamlik, sahovat, mexr ramzi desak mubolag'a bo'lmaydi.

"Shu o'rinda ma'naviyatning yuksalishi bilai chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir mezon- muqaddas dinimiz haqida alohida to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman"⁴. Din kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlagan. Jumladan, ota-bobolarimizning muqaddas e'tiqodi bo'lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarining shakllanishiga xizmat qilgan. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida boy ma'naviyati va merosi, o'zligini saqlab qolgan.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 32- bet.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 32-33-betlar.

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 35-bet.

⁴ O'sha asar.35-36-betlar

“Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qoʻshgan betakror hissasi toʻgʻrisida soʻz yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida “muhaddislar sultoni” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu moʻtabar zot merosining gultoji boʻlmish eng ishonchli hadislar toʻplami –“Al-jome’ as-sahih” kitobi islom dinida Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba boʻlib, ahli islom eʼtiqodiga koʻra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulugʻi hisoblanadi”⁵.

Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yoʻl qoʻymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi maʼnaviy iqlimni oʻzaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao boʻlur edi. Bu haqda gapirganda, men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning “Oʻtgan kunlar” asaridagi qahramonlarning oʻzaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham «siz»lab gapirishi misolida ota-bobolarimizning oila maʼnaviyatiga qanchalik ham eʼtibor berganiga ishonch hosil qilaman. Oila insoniyatning eng katta ijtimoiy-maʼnaviy kashfiyoti hisoblanadi⁶. Shu sabab oilaning mustahkamligi, barqarorligi jamiyat uchun juda muhim rol oʻynagan. Oila - tarbiyaning oʻchogʻi. Xalqimizda “qush uyasida koʻrganini qiladi” degan naql bejizga aytilmagan. Zero, oila jamiyatning tayanchi, mustahkam asosi, kelajagini belgilovchi oʻziga xos tuzilma, xalq maʼnaviyati va maʼrifatining maktabidir. Insonning kelgusida kim boʻlib voyaga etishi, uning qanday shaxs boʻlib shakllanishining dastlabki va asosiy elementlari oila muhitida shakllanadi. Bola dunyoqarashi, shaxsiy axloqiy sifatlarining shakllanishi uning 5-7 yoshgacha boʻlgan davrda uygʻotilmasa, kelgusida uning oʻrnini toʻldirish uchun qilingan koʻp harakatlar samara bermasligi mumkin.

-Maʼnaviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va taʼsiri xususida toʻxtalish albatta oʻrinlidir. Maʼlumki, azaldan oʻzbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani boʻlib keladi. Oʻzaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, etim-esirlarning boshini silash, toʻy-tomosha, hashar va maʼrakalarni koʻpchilik bilan bamaslahat oʻtkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga boʻlish kabi xalqimizga xos urf-odat va anʼanalar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan⁷. Mahallada birdamlik, qoʻni-qoʻshnichilik anʼanalari chuqur ildiz otgan. Bir bolaga yeti qoʻshni ota-ona deb bejiz aytishmagan. Bolani kamol toptirishda mahallaga katta masʼuliyat yuklanadi.

Maʼnaviyatni shakllantirishga bevosita taʼsir, qiladigan yana bir muhim hayotiy omil-bu taʼlim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Albatta, taʼlim-tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, yaʼni, xalq maʼnaviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir⁸.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, inson maʼnaviy kamolotida yuqoridagi mezonlarning oʻrni beqiyos. Ushbu omillar kishida sogʻlom fikr, keng dunyoqarash, yuksak insoniy fazilatlarni shakllanishiga yordam beradi.

References:

Используемая литература:

⁵ Oʻsha asar.38-bet

⁶ Oʻsha asar.55-bet

⁷ Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. –T.: Maʼnaviyat, 2008. 58-bet.

⁸ Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch. –T.: Maʼnaviyat, 2008. 60-61-betlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 58-bet.
2. Karimova, S. (2022). MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA OILANING ROLI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 715-718.
3. Saida, K. (2022). MAFKURAVIY TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ZARURATI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 119-122.
4. Bayeshanov, A. (2022). YOSHLARNI MILLIY G'OYA RUHIDA TARBIYALASHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 932-935.
5. Bayeshanov, A. M. (2014). Rol instituta semi v sotsialno-kulturnom razvitii molodogo pokoleniya. *Molodoy ucheno'y*, (9), 452-453.